

AQShning Xalqaro diniy erkinlik bo'yicha komissiyasi (USCIRF) Davlat Departamentidan alohida va ayri tashkilotdir. USCIRF-ni AQSH Kongressi tashkil qilgan bo'lib, u AQSh hukumatining dunyo bo'ylab diniy erkinlik masalalarini kuzatadigan va prezident, davlat kotibi va Kongressga siyosiy tavsiyalar beradigan mustaqil va ikki-partiyali maslahat idorasi hisoblanadi. USCIRF-ning bu tavsiyalari bizning rasmiy mandatimiz va Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va boshqa xalqaro hujjatlarga asoslanadi. "2016-qilgi yillik hisobot" joylardagi huquqbuzarliklarni hujjatlashtirish va AQSh hukumatiga mustaqil siyosiy tavsiyalar berish masalasida maxsus vakillar va professional xodimlar amalga oshirgan bir yillik ishning kulminatsiyasidir. "2016-qilgi yillik hisobot" 2015 yil 1-fevraldan 2016-yil 29-fevralgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi, ammo ba'zi hollarda bu muddatdan keyin sodir bo'lgan muhim voqealar ham eslab o'tiladi.

O'zbekiston

Muhim xulosalar: O'zbekiston hukumati din yoki e'tiqod erkinligini qattiq ravishda cheklovchi qonunni tatbiq qilishni va barcha mustaqil diniy faoliyatga, ayniqsa musulmonlar, ro'yxatga olinmagan protestantlar, va Iyegova guvohlarining faoliyatiga qattiq cheklovlar qo'yishda davom etmoqda. Hukumat rasman belgilangan me'yorlarga muvofiq ravishda harakat qilmagan yoki davlat ekstremistik deb da'vo qilgan insonlarni, jumladan, 12800 nafar musulmonni ham qamaydi va ko'pincha shafqatsiz muomalaga duchor qiladi. Ushbu diniy erkinlikning tizimli, ashaddiy va davomli huquqbuzarliklarga asoslanib, USCIRF 2016 yilda 1998 Xalqaro diniy erkinlik aktiga (IRFA) ko'ra, O'zbekistonni yana bir bor "alohida tashvishli mamlakat" yoki ATUM (CPC) deb belgilashni tavsiya qiladi. Davlat departamenti O'zbekistonni 2006-yildan beri va so'nggi marta 2014-yil iyul oyida shunday deb belgilagan bo'lsa-da, 2006-yildan buyon bunday belgilanish natijasida biror jazo chorasi ko'rishdan noma'lum vaqtga voz kechib kelmoqda.

Kelib chiqishi: Taxminan 28,7 million kishi istiqomat qiladigan O'zbekiston, Markaziy Osiyodagi sobiq Sovet respublikalari orasida aholisi eng ko'p davlat hisoblanadi. Aholining taxminan 93 foizi musulmon bo'lib, asosan sunniy yo'nalishining Hanafiy mazhabiga mansub, va bir foiz shialar asosan Buxoro va Samarqandda yashaydi. Aholining taxminan to'rt foizi rus pravoslavlaridir. Qolgan uch foiz aholi esa Rim katoliklari, koreys millatiga mansub xristianlar, baptistlar, lyuteranlar, adventistlar, Elliginchi kun xristianlari, Iyegova guvohlari, buddaviylar, bahoiylar, krishnachilar, shuningdek, ateistlardan iborat. Taxminan 6000 nafar ashkenazi va 2000 nafar Buxoro yahudiysi Toshkent va boshqa shaharlarda istiqomat qiladi.

O'zbekistonning 1998-yili qabul qilingan "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonuni barcha diniy guruhlar huquqlarini keskin cheklaydi va aksariyati musulmon hamjamiyatning diniy faoliyati ustidan hukumat nazoratini osonlashtiradi. Qonun ro'yxatdan o'tmagan diniy faoliyatni jinoyat deb hisoblaydi; diniy nashrlarning mazmuni, ularni ishlab chiqarish va tarqatish uchun rasmiy ruxsatni talab qiladi; voyaga yetmaganlarning diniy tashkilotlarga a'zo bo'lishni taqiqlaydi va jamoat joylarda diniy kiyim kiyishga oddiy insonlarga emas, faqat din peshvolariga ruxsat beradi, hamda prozelitizm va boshqa turdagi missionerlik faoliyatini taqiqlaydi. Ko'pgina diniy guruhlar ro'yxatga olish talablariga javob bera olmaydi, chunki ularga qo'yiladigan talablardan biri 13 viloyatning kamida sakkiztasida doimiy vakolatxonga ega bo'lishdir. 2014-yilda qabul qilingan senzura haqidagi batafsil yangi farmon

e'tiqodni "buzadigan" yoki shaxslarni dinini o'zgartirishga rag'batlantiruvchi materiallarni taqiqlaydi.

O'zbekiston hukumati faol ravishda rasman belgilangan diniy me'yorlarga mos bo'lmagan shaxslar, guruhlar, masjidlar va boshqa ibodat uylariga yoki ekstremistik siyosiy dasturlar bilan aloqada gumon qilinganlarga bosim o'tkazadi. O'zbekistonda din nomidan zo'rvonlik qiluvchi guruhlardan xavfsizlikka tahdid mavjud bo'lgan bir paytda hukumat ekstremizmga qarshi mavhum qonunlarni tinch din tarafdorlari va hech qanday haqiqiy tahdid solmaydigan boshqa insonlarga qarshi ishlatdi. Bu kampaniya quyidagilarga qarshi qaratilgan: Andijon shahrida 2005-yil may oyidagi noroziliklar bilan bog'liq taqiqlangan "Akromiya" musulmonlar guruhiga a'zolik ayblovi bilan sudlangan 23 nafar biznesmen. O'sha asosan tinch bo'lgan namoyishga javob tariqasida, O'zbek davlat armiyasi 1000 gacha fuqarolarni o'ldirgan. 230 nafar inson ushbu tragediya munosabati bilan hali ham qamoqda; 11 nafar mahbus qamoqda halok bo'lgan, jumladan islom dini peshvosi bo'lgan Akram Yuldashev. 2016 yil yanvar oyida, Akram Yuldashev'ning 17 yillik qamoq jazosidan ozod bolishiga bir oy qolganda, O'zbek rasmiylari dunyoga va Yuldashevning oilasiga u 2010 yilda tuberkulyozdan o'lgan deb aytishdi. O'zbekiston hukumati shuningdek Andijon fojiasidan keyin qochib ketgan yuzlab o'zbeklarni qaytarish uchun boshqa mamlakatlarga bosim o'tkazmoqda, va ularning qarindoshlariga chet eldagi oila a'zolari bilan birlashish uchun O'zbekiston hududidan chiqishni taqiqlamoqda .

O'zbekistonning repressiv diniy qonunlari va siyosatiga qaramay, rasmiy masjidlar ko'pincha to'la, jumladan yoshlar bilan. 2016 yil mart oyida 63 yoshda yurak huruji tufayli vafot etgan sobiq muftiy Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning janozasiga Toshkentda o'n minglab odamlar yig'ildi. Kommissiya bilan bir necha marta uchrashgan sobiq muftiy shuningdek mashhur Islom olimi bo'lgan; uning Islom va inson huquqlari haqidagi ko'plab asarlari bor va uning veb sahifasi chet eldagi va biroz miqdorda davlatdagi islom haqida ma'lumot beradi.

2015-2016-yillardagi diniy erkinlik sharoitlari

Ekstremizmga qarshi qonunlarni qo'llash: O'zbekiston hukumati diniy amaliyot ustidan yoki ularning gumonlangan diniy mansubligi uchun davlat nazoratini rad etgan shaxslarni hibsga olish va 20 yil muddatgacha bo'lgan muddatlarga ozodlikdan mahrum etishning o'n yillik siyosatini davom ettirdi. Ularning ko'pchiligiga adolatli sudga ruxsat etilmadik va qiynoqqa solinmoqda; ba'zilar ruhiy kasalxonalarda ushlab turilibdi. Mustaqil Inson Huquq Himoyachilari Tashabbus Guruhi (MIHHTG) ma'lumotiga ko'ra, 2015 yil ohirida 12800 diniy mahbuslar bo'lgan, ko'pchiligi qiynoqlarga solinish havfida; xabar berilishicha, 84 diniy mahbus yakka cheklashda qolgan.

2015 yilda Rossiya, Turkiya va AQShdan qaytayotgan mehnat migrantlarini terrorist guruhlar va Iroq va Shom Islom Davlati (ISHID) bilan aloqada gumonlanib, ommaviy qamoqqa olinishlar amalga oshirilgan; ularning kamida 200tasining holati noma'lum, qisman maxfiy politsiya qarindoshlariga advokatlarni yollamaslikni yoki inson huquqlari aktivistlari bilan aloqa qilmaslikni aytdanliklari sababli. Hukumatning iddao qilishicha, hibsga olinganlarning ko'pchiligi "vahobiy", "jihodchi" deb nomlangan ekstremistik guruhlarga aloqadordir, ammo ko'pincha zo'rvonlik ishlatilgani yoki targ'ib qilingani haqidagi dalillarsiz qolmoqda. Ushbu shartlar turfa xil musulmon shaxslar va guruhlar, jumladan, zo'rvon ekstremistlar, siyosiy muxoliflar, xorijda ta'lim olganlar va boshqalarga tegishli bo'lishi mumkin.

O'zbek inson huquqlari aktivisti Surat Ikramov xabar berishicha, 2015 yil iyun oyida Toshkentda militsiya hodimlari musulmon Olmosbek Erkaboyevni ikki oy xibsda ushlab, diniy ekstremizm bilan shug'ullanganlikni tan oldirish uchun urgan.

2016 yil fevral oyida Jizzax sudi Armeniyalik xristian Aramayis Avakianni 7 yil qamoq jazosiga, musulmon Furqat Jo'raevni 12 yilga va yana uch musulmonni besh yarimdan olti yarim yilgacha muddatlarga hukm qilgan deb xabar berdi ularni himoya qilgan Avakian+4 guruhi.

Prezident saylovlari arafasida, 2015-yil fevral oyida O'zbekiston hukumati olti nafar mashhur vijdon tutqini bo'lgan musulmon mahbusni, jumladan, taniqli sport jurnalisti va musulmon sharhlovchisi Xayrulla Hamidovni afv qildi. Ozodlikka chiqarish sharti sifatida barcha maxbuslar prezident Islom Karimov nomiga uzrnoma yozishi kerak edi. O'zbek inson huquqlari himoya qilish guruhlari xabar berishicha, diniy maxbuslar an'anaviy Konstitutsiya kuniga bag'ishlangan amnistiya muvofiq emaslar. Masalan, Zuboyd Mirzorakhimov, 2013 yilda telefonida Qur'on oyatlari borligi sababli hibsga olingan Tojikiston fuqarosi, 2016 yil yanvar oyida amnistiya qilinmadi.

Qamoqda saqlash sharoitlari: O'zbekiston hukumatining bayonotlariga qaramay, qamoqlarda, dastlabki tergov va politsiya uchastkalarida qiynoqlar davom etmoqda va xabarlariga ko'ra, ular zo'rvonlik yoki unga tahdid, jumladan, jinsiy zo'rlash va jabrlanganlarning nafas olishini gaz niqoblari bilan bo'g'ib qo'yishni o'z ichiga oladi. Aytilishicha, qiynoq kattalar va bolalarni ularning diniy qarashlaridan qaytarishga majburlash yoki aybini tan oldirish uchun ishlatiladi. Amnesty International ning 2015 yilgi xisobotiga ko'ra, oxirgi 15 yil davomida ekstremizm bilan aloqador bo'lgan jinoyatlarda ayblangan yoki sudlangan erkak va ayollar qiynoqqa solinishga eng moyildir, jumladan, mustaqil masjidlarda ibodat qiluvchi musulmonlar, oppozitsion partiya va taqiqlangan Islomiy harakatlar, yoki Islomiy guruhlar va partiyalar a'zolari. 2015 yil ohirida musulmon Khayrullo Tursunov o'lim arafasida bo'lgan, uni opa-singillari tashrif damovida ko'rishgan; Qozog'iston tomonidan 2013 yilda noqonuniy ravishda ekstraditsiya qilingan va 16 yil qamoq jazosiga mahkum qilingan. O'zbekistonning "Ezgulik" inson huquqlari guruhi xabar berishicha, ayol mahbuslar, jumladan, bir necha diniy e'tiqodi uchun qamalanganlar qiynoqqa solingan. Diniy maxbuslar jazo muddati tugashiga biroz qolganda, O'zbek davlat hodimlari qamoq rejimi buzilishi haqida qalbaki ayblovlarni yaratishadi va shu bilan maxbuslarning qamoq muddatini yana uch yildan olti yilgacha uzaytiradi, bunday holat musulmon maxbuslar Kamol Odilov and Botir Tukhtamurodovlar holatida yuz berdi; ular Said Nursi matnlarini o'qiganlik uchun qamoqqa olingan 100 dan ortiq musulmonlardan bo'lgan. Xalqaro Qizil Xoch qo'mitasi 2013-yil boshida odatdan tashqari ishga qo'l urdi – O'zbekistondagi o'z ishini rasmiy hamkorlik yo'qligini sabab qilib ko'rsatib to'xtatib qo'ydi.

Musulmonlarga nisbatan cheklovlar: O'zbekiston hukumati islomiy tashkilotlarni qattiq nazorat ostida tutadi va ularning mustaqil diniy amaliyotini taqiqlaydi. Hukumat Farg'ona vodiysida bir necha masjidlarini musodara qildi va bolalarning masjidlarga borishini taqiqlab qo'ydi. Hukumat nazoratidagi Musulmonlar Diniy idorasi imomlarning o'qishi, ularni tayinlash va lavozimidan chetlatishni nazorat hamda va'z va islomiy adabiyotlar tarkibini senzura qiladi. Xabar berilishicha, Toshkent viloyatida bir guruh musulmonlar 2015 yil o'rtalaridan beri kuchli bezovta qilingan. To'rttasi bir oydan ikki oygacha xibsga olingan, va 18 tasi "diniy uchrashuvlar o'tkazish tartibini buzganlik" uchun jarimaga tortilgan. O'n ayoldan iborat guruh ham shunday "jinoyat" uchun xibsga olinib jarimaga tortilgan. 2015 yil avgust oyida, terrorga qarshi kurash

politsiyasi ularning erkak qarindoshlarining uylariga bostirib tekshirishgan; agar ular birgalikda ibodat qilishni davom etishsa qamoqqa olinishlari aytilgan.

Musulmon bo'lmaganlarga qarshi ayblovlar: Davlat tomonidan boshqariladigan ommaviy axborot vositalari boshqa diniy guruhlariga qarshi noto'g'ri tushuncha paydo bo'lishini qo'llab-quvvatlaydi, missionerlarni diniy ekstremistlariga tenglashtirib qo'ygan. Hukumat ko'pincha Injilchi protestant va Iyegova guvohlarini davlat ruxsat bergan tuzilmalardan tashqarida din amallarini bajargani uchun "ekstremist" deb hisoblaydi. Ularga "noqonuniy diniy faoliyat" uchun ommaviy tarzda jarima solinadi, ushlab turiladi va hibsga olinadi. 2016 yil fevral oyida baptist Tohar Haydarovga bu yil amnistiya qilinmasligi aytildi, u ma'lum bo'lgan yagona xristian maxbus. 2015 yil noyabr oyida Toshkent shaxridagi maktab direktori ikki o'quvchi o'z dinini paylashmoqda deb militsiyaga xabar berganidan keyin, militsiya protestantlar uchrashuviga reydlar qilgan, ba'zi qatnashchilar xibsga olingan va qiynoqqa solingan. Militsiya shuningdek pul o'g'irlagan va xristian matnlarni musodara qilgan. 2015 yil aprel oyida militsiya Qashqadaryo viloyatida protestant Guljahon Kuzebayevaning qidiruvini qaytadan boshladi; u 2014 yil iyuldan beri militsiya zolimligidan qo'rqib yashirib yurgan edi. Iyegova guvohlari 2015 yil May oyida ibodat uchun Samarkand yaqinida uchrashganida, ular bostirildi va keyinchalik jarimaga tortildi; ba'zilariga narkotik moddaga tegishli qalbaki ayblov bilan ikki yillik qamoq jazosi berildi; ayol Iyegova guvohlari jinsiy zo'rqlash bilan qo'rqitildi va qiynoqqa tortildi. 2015 yil iyul oyida Iyegova guvohlari mahalliy qabristonda qarindoshni dafn etishga ruxsat so'raganida, militsiya va imom dafnga yo'l qo'ymagan. Toshkentdagi musulmon bo'lmagan diniy boshliqlar yig'ilishida, davlat xodimlari faqat O'zbek nomusulmonlarga ularning vasiyatnomasi dafn hohishlarini belgilashini "tavsiya" qilishdi. Xabar berilishicha, davlat organlari protestant cherkovlari dafn qilish qiyinchiliklari haqida arz qilganda ularga bosim o'tkazadi. Davlat idoralari ro'yxatdan o'tgan va o'tmagan xristian va xahoiy guruhlar yig'inlariga bostiruv uyushtiradi.

Kuzatuv Rejimi: 2014-yil avgust oyida kuchga kirgan yangi qonun barcha oldingi maxbuslarni ichiga olgan Profilaktika Ro'yxatini tuzib, ularga kamida bir yil uchun "Profilaktika choralari"ni belgilaydi. Qonun davlat idoralari ro'yxatning amal qilish muddatini bir yildan ortiq muddatga uzaytirishga va mahalliy hokimiyatga "ro'yxatdan o'tmagan diniy guruhlar faoliyati oldini olish" uchun norasmiy xabar beruvchilar bilan ishlashga ruxsat beradi. 2015 yil May oyida Navoi militsiyasi to'rtta protestantni to'htatdi; militsiya so'rog'i davomida bittasi qiynoqqa solindi; to'rttadan bittasi, Murot Turdiev, xabar berilishicha Profilaktika Ro'yxatida turgan. 2015 yil aprel oyida, islomiy rumol kiygani uchun muallimlikdan haydalgandan uch yil so'ng, Gulchohra Norbayeva "noqonuniy" ravishda Qur'onni o'rgatganlikda ayblandi va musulmon erkaklarni ayblashi uchun unga bosim qilindi; militsiya unga u Profilaktika Ro'yxatida ekanligini aytdi.

Diniy materillarni cheklash: Din ishlari bo'yicha kengash (DIK) diniy materillarni senzura qiladi. Shuningdek, hukumatning qo'lida taqiqlangan xalqaro, xususan, inson huquqlari va diniy erkinlik bo'yicha veb-saytlarning keng ro'yxati bor. Din haqidagi qonun ruxsat berilmagan diniy materillarni import qilish, saqlash, ishlab chiqarish va tarqatishni taqiqlaydi. Xabar qilinishicha, turli diniy jamoalarning a'zolari politsiya reydlari davomida musodaradan qo'rqib, muqaddas matnlarni yo'q qiladi. Bir DIK rasmiysining bergan bayonotiga ko'ra, o'zbek qonunchiligi diniy matnlarni faqat ro'yxatdan o'tgan diniy guruhlar binolari ichida o'qish imkonini beradi. Ochiqchasiga diniy pamfletni taklif qilganidan so'ng, Baptist Doniyor Akhmedov 2015 yil

boshida 15 kungacha muddatga xibsga olingan uchta ma'lum O'zbek Protestantidan biri bo'ldi. U keyinchalik yillik eng kam oylik ish haqqining uch barobari miqdorida jarimaga tortildi. 2015 yil sentabr oyida Qarshida 10ta Baptist ruxsat berilmagan ibodat yig'ilishlari uchun eng kam oylik ish haqqining 50 barobarigacha miqdorda jarimaga tortildi va ularning Injillari yo'qotildi. Forum 18, xabar berishicha, militsiya reydi va matnlar olinishidan keyin, 2015 yilning birinchi 10 oyi davomida, Iyegova guvohlari 75 jarimaga tortildi, har biri eng kam oylik ish haqqining 20 barobari miqdorida.

Diniy ta'lim va sayohatga oid cheklovlar: O'zbekiston hajga boradigan musulmonlar sonini qattiq cheklaydi, jumladan uzoq militsiya tekshirishlari orqali. 2015 yilda O'zbek inson huquqlari aktivisti aytishicha, u hajga kutish ro'yxatining tepasiga chiqishi uchun 205 yil kerak bo'ladi – va shunda ham unga chiqish vizasi berilmasligi mumkin. Diniy ta'limni rasman ruxsat etilgan diniy maktablarda davlat ruxsat bergan muallimlar berishi mumkin va qonuniy ravishda diniy ma'lumot berish uchun faqat oltita ro'yxatdan o'tgan diniy jamoa sakkizta qonuniy ro'yxatdan mintaqaviy filialga ega. Xususiyl diniy ta'lim jazolanadi. 2010-yilda islom dini o'qituvchisi Mehriniso Hamdamova ayollarga islomiy ta'lim bergani uchun olgan yetti yillik qamoq jazosini o'tamoqda; xabar berilishicha u saraton kasaliga duchor, ammo unga tibbiy yordam berilmagan.

AQSh siyosati

O'zbekiston Markaziy Osiyoning aholisi eng ko'p mamlakati bo'lib, Markaziy Osiyodagi qolgan to'rt sobiq Sovet respublikasi va Afg'oniston bilan chegaradoshdir. Bundan tashqari, O'zbekiston Sovet davridadagi Rossiya bilan bog'lovchi mintaqaviy temir yo'l tizimining markazida turadi, va shu sababli, so'nggi yillarda AQShning O'zbekistondagi siyosati Afg'onistondagi xalqaro kuchlarni ta'minlash yo'li bo'lgan Shimoliy Taqsimlash Tarmog'ida (ShTT) ushbu mamlakatning egallagan muhim o'rniga qaratilgan. O'zbekiston ShTT tugunidir, ammo ba'zan hamkorlik qilmaydi.

Kongress 2004-yilda davlat kotibi O'zbekiston inson huquqlari borasidagi majburiyatlarini bajarishi, ko'ppartiyali tizimni barpo etish hamda ozod va adolatli saylov o'tkazish masalalarida sezilarli rivojlanishni amalga oshirgani haqida hisobot berguniga qadar AQShning O'zbekiston hukumatiga yordam berishini taqiqladi. 2004-yildan beri AQShning O'zbekistonga berayotgan yordami demokratik islohotlarda siljish yo'qligi sababli to'xtatilgan edi. Kongress 2008-yilda O'zbekistondagi 2005-yilgi Andijon voqealari yoki boshqa inson huquqlari buzilishi hollari uchun javobgar deb hisoblangan mansabdor shaxslarining AQSh hududiga kirishini taqiqlovchi qonun qabul qildi.

Ammo so'nggi yillarda harbiy yordam oshdi. Xabarlarda aytilishicha, 2009-yil holatiga ko'ra, O'zbekiston "ayrim hollarda" o'z hududida aksilterror amaliyotlariga ruxsat berdi. Kongress 2010-yilda O'zbekiston uchun kengaytirilgan harbiy ta'lim va o'qitish dasturlariga ruxsat berdi. Davlat departamenti 2012-yilda din erkinligining keskin cheklangani, tinimsiz qiynoqlar va 2005-yilgi Andijon voqealari mustaqil tergov qilinmagani singari bir qancha inson huquqlarini baholash bilan bog'liq tashvishli holatlarga qaramay, milliy xavfsizlik nuqtai nazaridan O'zbekistonga olti oy harbiy yordamni berishni ma'qul topdi. Bunday

yordam chegara qo‘shinlarini o‘qitish va ehtimol harbiy anjomlar bilan ta‘minlashni o‘z ichiga oladi.

2015 yil noyabr oyidagi birinchi O‘rta Osiyo tashqi ishlar vazirlarining AQSh bilan o‘tkazgan uchrashuvida, Davlat Kotibi Kerri AQSh va O‘rta Osiyo iqtisodiy va havfsizlik “sheriklar” ekanligini ta‘kidladi va “inson o‘lchami”ni uchrashuvning besh mavzusi so‘nggida sanab o‘tdi. Davlat Kotibi Kerri O‘zbek tarafning Afg‘onistonning havfsizlik va radikal diniy ekstremizm masalalaridagi tashvishlarini tushunishini aytganiga qaramay, inson huquqlari masalalarini ko‘tarmadi.

AQSh 2009-yilda har bir Markaziy Osiyo davlati bilan Yillik ikki tomonlama maslahatlashuvlar (YITM) o‘tkazdi. Eng so‘nggi AQSh-O‘zbekiston YITM 2016-yil yanvarida Vashington shahrida amalga oshirildi. AQSh delegatsiyasiga Janubiy va Markaziy Osiyo masalalari bo‘yicha davlat kotibi yordamchisi Nisha Desai Biswal boshchilik qildi, O‘zbekiston delegatsiyasiga Abdulaziz Komilov boshchilik qildi. Muhokama etilgan inson huquqlari masalalari bir necha diniy va boshqa mahbuslarning holati, fuqarolik jamiyati va ommaviy axborot vositalari, mehnat huquqlari va diniy erkinlik bo‘yicha cheklovlarni o‘z ichiga olgan, jumladan diniy guruhlarni ro‘yxatga olishdagi o‘gir talablar.

Davlat Departamenti 2006-yildan beri O‘zbekistonni uning tizimli, ashaddiy, davom etayotgan diniy erkinlik buzilishlari sababli “Alohida tashvish uyg‘otadigan mamlakat” yoki ATUM deb belgilab keladi. ATUM belgilovi so‘nggi marta 2014-yil iyul oyida yangilandi, lekin Davlat departamenti buning oqibatida har qanday harakatdan noma‘lum vaqt mobaynida voz kechish siyosatini davom ettirdi. Davlat departamenti ma‘lum qilishicha, IRFA-ning 407-bo‘limiga ko‘ra, bunday voz kechish “Qo‘shma Shtatlarning muhim milily manfaatlariga”ga mos keladi.

Tavsiyalar

AQSh hukumati O‘zbekistonni ATUM (CPC) sifatida e‘tirof etishni davom etish tavsiyasidan tashqari, USCIRF AQSh hukumati quyidagilarni amalga oshirishi kerak deb hisoblaydi:

- IRFA-ning 405 (c) bandiga ko‘ra, O‘zbekiston hukumati bilan ushbu mamlakatni ATUM ro‘yxatidan chiqarish uchun amalga oshirilishi kerak bo‘lgan ishlar masalasida majburiy shartnoma imzolashni tashkil etish ustida ishlash; agar muzokaralar muvaffaqiyatsiz bo‘lsa yoki O‘zbekiston shartnomadagi majburiyatlarini bajarmasa, 2009-yil yanvaridan beri ATUM deb belgilanish bilan bog‘liq bo‘lgan har qanday avvalgi voz kechishlarni bekor qilish va IRFAda belgilangan sanksiyalarni qo‘llash;
- O‘zbekiston hukumati diniy erkinlik sharoitini yaxshilash, inson huquqlari bo‘yicha xalqaro standartlarga rioya qilish, jumladan, 1998-yilgi din haqidagi qonunni isloh qilish va 2005-yildagi Andijon voqealari va musulmon rahbar Akram Yuldashevning 2010 yildagi qamoqdagi o‘limi masalalarida xalqaro tergovga ruxsat berish bo‘yicha maxsus tadbirlarni amalga oshirsa, gumanitar yordam va inson huquqlari dasturlaridan tashqari AQShning yordam berishi masalasini ko‘rib chiqish;
- Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo‘yicha kengashini O‘zbekistondagi inson huquqlari bilan bog‘liq vaziyatni tahlil etishga da‘vat etish, shuningdek, EXHT kabi boshqa ko‘p tomonlama tuzilmalarda masalalarni ko‘tarish, O‘zbekistonni Din yoki

e'tiqod erkinligi, sud idoralarining mustaqilligi va qiynoqlar bo'yicha BMT maxsus ma'ruzachilarining safarlariga rozilik berishga undash, safarning aniq kunlarini belgilash va bunday safar uchun to'liq va zarur shart-sharoitlarni ta'minlash;

- AQShning diniy erkinlik va tegishli inson huquqlariga munosabati, jumladan, diniy mahbuslarni ozod qilish haqidagi chaqiriqlari, AQShning umumiy bayonotlari va O'zbekiston rasmiylari bilan shaxsiy uchrashuvlarda ham aks ettirilishini ta'minlash uchun AQSh bayonotlari va harakatlari agentliklar orasida muvofiqlashtirilishiga erishish;
- AQSh elchixonasi inson huquqlari faollari bilan tegishli aloqalarni saqlab qolishini ta'minlash, jumladan elchi darajasida;
- Tinch diniy faoliyati yoki diniy tegishliligi uchun qamoqqa olingan insonlarning tezkor ravishda ozod qilinishi uchun eng baland darajada bosim o'tkazish va har bir mahbus o'zining oilasi, inson huquqlari kuzatuvchilari va advokatlar bilan ko'proq ko'rishishi, tegishli tibbiy yordamga ko'proq ega bo'lishini ta'minlash uchun O'zbekiston hukumatiga bosim o'tkazish;
- Tegishli masalalar, xususan, inson huquqlari va diniy erkinlik masalalarining to'liq muhokamasiga imkoniyat berish uchun Yillik ikki tomonlama maslahatlashuvlarning ikki kun davom etishini ta'minlash; hamda
- AQSh Radioeshittirish boshqaruvchilari kengashi "Amerika Ovozi" o'zbek xizmati va Ozod Yevropa/Ozodlik radiosining o'zbek xizmati veb-sayti, musulmonlar va demokratiyani moliyalashtirishni davom ettirishni ta'minlash hamda Ozod Yevropa/Ozodlik radiosining o'zbek xizmati ma'lumotlarini boshqa tegishli tillarga tarjima qilishni ko'rib chiqish.